

**DAVLAT SUD EKSPERTI VAKOLATLARI, SUD TIBBIYOTI
SHAROITIDA (AXBOROT-TAVSIFIY MAQOLA)**

M.A. Dexkkonov¹, R.S. Fazlitdinova²

**Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Andijon filiali,
Andijon Davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston**

Rezume: Davlat sud eksperti – bu sudlar va ishlarni tergov qilish yoki ko'rib chiqish bilan shug'ullanadigan boshqa organlarning topshirig'iga binoan sud ekspertizalarini o'tkazadigan mutaxassis. U ma'lum bir fan, texnika, san'at yoki hunarmandchilik sohasida maxsus bilimlarga ega. Davlat sud ekspertlari sud tibbiy, iqtisodiy, texnik va psixologik ekspertiza kabi turli xil ekspertizalarni o'tkazishlari mumkin. Ular o'zlarining kasbiy bilimlari asosida ob'ektiv va mustaqil xulosalar berish orqali sud jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ularning ishi sudga asosli qarorlar qabul qilishga va adolatni ta'minlashga yordam beradi. Ushbu maqolada davlat sud tibbiy eksperti va tibbiyot mutaxassislarning vazifalari ya'ni, sudda ishtiroki, majburiyatlari, huquqlari va boshqa ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlari: JPK (jinoyat-protsessual kodeksi), ekspert, ekspertiza, mutaxassis, sud, xolis, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror

Sud-tibbiy ekspertning sudda ishtirok etishi

Odatda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya tomonidan chiqarilgan qarorlarga ko'ra sud-tibbiy ekspertiza o'tkaziladi. JPK ning 172-moddasida ekspertiza tayinlash uchun asoslar ko'rsatilib o'tilgan. Unga ko'ra:

-Ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda ekspertiza tayinlanadi. Surishtiruvchi,

tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassislar, xolislarning bunday bilimlarga ega bo'lishi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmaydi.

-Ekspert oldiga qo'yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas.

-Ekspertizani ushbu Kodeksda belgilangan tartibga xilof ravishda o'tkaziladigan tekshiruv bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Idoraviy tekshiruv xulosasi, taftish hujjatlari, mutaxassislar maslahati ekspertiza o'tkazish zaruratini istisno etmaydi.

JPKning 173-moddasiga ko'ra quyidagi holatlarda ekspertiza tayinlash va o'tkazishning shartligi ko'rsatilgan:

-o'limning sababini, yetkazilgan tan jarohatlarining xususiyati va og'irlik darajasini;

- jinsiy aloqada bo'lganlikni, homiladorlik holatini va homilani sun'iy yo'l bilan tushirish belgilarini;

- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining yoshini, agar bu haqda hujjatlar bo'lmasa yoki hujjatlar shubha tug'dirsa;

- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining, ustidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashga doir ish yuritilayotgan shaxsning ruhiy va jismoniy ahvolini xamda ularning g'ayrihuquqiy qilmishni sodir etayotgan paytda o'z harakatlarini idrok etish va idora qilish layoqatini, shuningdek jinoiy javobgarlikning ahamiyatini tushunish, jinoyat protsessida ko'rsatuvlar berish xamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini;

- jabrlanuvchining, guvohning ruhiy va jismoniy holatini xamda ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qilish, esda saqlash va so'roq qilganda ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklarini, shuningdek jabrlanuvchining jinoyat protsessi chog'ida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini;

- tanosil va boshqa yuqumli kasalliklarga chalingan, surunkali ichkilikbozlikka va giyohvandlikka duchor bo'lgan shaxslarni davolash zarurligini va imkoniyatlarini;
- giyohvandlik vositalari va ularning turlari mavjudligini;
- pul belgilari, qimmatli qog'ozlar va boshqa hujjatlar qalbakilashtirilganligini;
- portlashlar, falokatlar va boshqa favqulodda hodisalarning texnikaviy sabablarini aniqlash zarur bo'lganda ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart.

Ish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlashda xam, agar buning uchun maxsus bilimlarni qo'llash zarur bo'lsa va bu holatlar isbotlashning boshqa vositalari bilan puxta aniqlanmagan bo'lsa, ekspertiza o'tkazish shart.

JPKning 174-moddasida ekspert etib tayinlanadigan shaxslar ko'rsatilgan.

Ekspertizani ekspertiza muassasalarining, boshqa davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining mutaxassislari yoki surishtiruvchi, tergovchi yoxud sud tayinlagan boshqa bilimdon shaxslar o'tkazadi.

Sud-tibbiyot, sud-psixiatriya, sud-psixologiya, sud-avtotexnika, sud-buxgalteriya, kriminalistika ekspertizalarini faqat ekspertiza muassasalarining mutaxassislari, alohida xollarda esa, davlatga qarashli boshqa muassasalarning mutaxassislari o'tkazadilar. Alohida xollar ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda asoslantirilishi lozim.

Surishtiruvchi, tergovchi, sudning ekspert etib tayinlangan shaxsni chaqirish va uning ekspertiza o'tkazishi to'g'risidagi talabi shu shaxs ishlayotgan korxona, muassasa yoki tashkilot rahbari uchun majburiydir.

JPKning 175-moddasida ekspertiza obyektlari qayt etilgan. Ekspert tomonidan tekshiriladigan obyektlar jumlasiga:

- ashyoviy dalillar va ekspert tekshiruvi uchun olingan namunalar;
- ekspertiza orqali daliliy ahamiyati aniqlanadigan boshqa moddiy obyektlar;

- tirik odamning badani;
- ruhiy holati;
- murda;
- hujjatlar kiradi.

O'zbekiston respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 68-moddasida va sud ekspertizasi to'g'risida Qonunning 10-moddasida ekspert to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Huquqiy hujjatlarga ko'ra ekspert quyidagi huquqlarga ega:

-ekspertiza qilish uchun tegishli ish materiallari bilan tanishish va undan kerakli ma'lumotlarni yozib olish;

-o'ziga qo'shimcha materiallar taqdim etilishi haqida iltimosnoma berish;

-basharti hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar uning mutaxassisligiga oid bo'lmasa yoki xulosa berish uchun unga taqdim etilgan materiallar yetarli bo'lmasa, xulosa berishning iloji yo'qligi haqida hujjat tuzish;

-surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning ruxsati bilan tergov harakatlari yuritilishida ishtirok etish va tergov harakatida ishtirok etuvchi shaxslarga ekspertizaga oid tegishli savollar berish;

-ekspertizaga oid dalillarni tekshirishda sud muhokamasida ishtirok etish va sudning ruxsati bilan so'roq qilinayotgan shaxslarga savollar berish;

-ashyoviy dalillarni va hujjatlarni ko'zdan kechirish;

-o'z xulosalarida faqat uning oldiga qo'yilgan masalalar haqida emas, balki ekspertizaga oid boshqa masalalar bo'yicha xam fikr bildirish;

-basharti ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa va ko'rsatuv berish va bu xolda tarjimon xizmatidan foydalanish;

-surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga egadir.

Ekspertning majburiyatlari:

- surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi;
- oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha yozma xulosalar berishi;
- o'zi tomonidan o'tkazilgan ekspertiza bo'yicha ko'rsatuvlar berishi va bu xulosalarni tushuntirish uchun qo'yilgan qo'shimcha savollarga javob berishi;
- surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning ruxsatisiz surishtiruv va dastlabki tergov materiallarini oshkor etmasligi;
- ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.
- Ekspert uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin.
- Ekspert uzrsiz sababga ko'ra o'z vazifalarini bajarishni rad etgan yoki undan bo'yin tovlagan taqdirda, shuningdek bila turib yolg'on xulosa berganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladi.

O'zbekiston respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 69-moddasida mutaxassis to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

-Tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun mutaxassis chaqiriladi. Mutaxassis sifatida shifokor, pedagog xamda zarur bilim va malakaga ega bo'lgan boshqa shaxslar chaqirilishi mumkin.

-Himoyachining iltimosnomasiga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan mutaxassis tushuntirish berish uchun chaqirilishi mumkin.

-Tergov va sud muhokamasini o'tkazishda ilmiy-texnika vositalarini (magnitofon, videomagnitofon, kinoga olish apparatlari va boshqa apparatlarni) qo'llash uchun mutaxassis chaqirilishi mumkin.

Mutaxassisning huquqlari:

- o'zining qanday maqsadda chaqirilganligini bilish;

-basharti tegishli bilimlarga ega bo'lmasa, ish yuritishda ishtirok etishdan bosh tortish;

-o'zi ishtirok etayotgan protsessual harakatlarga oid ish materiallari bilan tanishish;

-o'zi ishtirok etayotgan protsessual harakatlarga aloqador arz va mulohazalar bildirish;

-tergov harakatlari va sud muhokamasida ishtirok etayotgan shaxslarga surishtiruvchining, tergovchining, prokuror va sudning ruxsati bilan savollar berish;

-surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari ustidan shikoyatlar keltirish huquqiga egadir.

Mutaxassisning majburiyatlari:

-surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi;

-tergov harakatlari va sud muhokamasini yuritishda dalillarni topish va mustahkamlash uchun ilmiy-texnika vositalari, maxsus bilim va malakasidan foydalangan xolda ishtirok etishi;

-ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning e'tiborini qaratishi;

-o'zi bajarayotgan harakatlar bo'yicha tushuntirishlar berishi;

-jinoyatning kelib chiqish sabablarini, sodir qilinishiga imkon bergan sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqishda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berishi;

-surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning ruxsatisiz surishtiruv va dastlabki tergov materiallarini oshkor etmasligi;

-ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

JPKning 67-moddasiga binoan xulosa berish uchun zarur bilimga ega bo'lgan xar qanday shaxs ekspert sifatida chaqirilishi mumkin. Ekspert chaqirish, ekspertiza tayinlash va o'tkazish ushbu Kodeksning 172, 187-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

JPKning 187-moddasiga ko'ra ekspert xulosasini baholash:

-Ekspert xulosasi surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalariga rioya etilganligi nuqtai nazaridan baholanadi.

-Ekspertning xulosasi surishtiruvchi, tergovchi yoki sud uchun muqarrar daliliy kuchga ega emas. Xulosaga qo'shilmaslik qarorda yoki ajrimda asoslab berilishi lozim.

-Jinoyat ishi bo'yicha bir necha ekspertiza o'tkazilgan va ekspertlar bir xil fikrga kelmagan bo'lsalar, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ba'zi ekspertlarning xulosalariga qo'shilish va boshqa ekspertlarning xulosalariga qo'shilmaslik to'g'risidagi o'z fikrini asoslab berishi lozim.

Xulosa

Yangi ekspert guvoh uchun tayyorgarlik ko'rish juda muhimdir. Siz ishning tafsilotlarini va unga tegishli bo'lgan o'ziga xos ilmiy jihatlarni yaxshi tushunishingiz kerak. Kerakli ma'lumotlarni o'qib, savollar berib, huquqiy jarayon bilan tanishishga arziydi, shuningdek guvohlik berish yoki sud jarayonida ishning borishini kuzatishingiz mumkin.

Ba'zi hududlarda sudda taqdim etilgan dalillar videoga olinishi mumkin. Videoni ko'rib chiqish uchun so'rash mumkin.

Advokatning muammolarini o'zingiznikidek qabul qilmang. Agar siz birinchi marta ekspert guvohi bo'lsangiz, advokat savollariga tayyorlanishingiz kerak. Agar advokat sizning savolingizga javobingizni yoqtirmasa, bu ham sizning tashvishga solmasligi kerak. Asosiysi, prinsipial, halol, neytral bo'ling va sud jarayoni natijalariga professional qiziqish bildirmang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi O'RQ-249-son 01.06.2010

2. «Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi 73-son qarori bilan tasdiqlangan «Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomi» O'z.R.Vazirlar Mahkamasi 21.02.2023
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 22/09/1994-yil.
4. G'iyosov Z.A. Sud-tibbiyoti, Darslik, Toshkent – 2018. 15-25-b.
5. Indiaminov S.I., Qo'shboqov A.M. Sud-tibbiyoti, Darslik, Toshkent – 2021.
6. G'iyosov Z. A., Botaev J. I., Saidov Ch. Sh. Sud tibbiyoti va psixiatriyasi. Ikki jildli. 1-jild. Sud tibbiyoti: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 146 b.
7. Shamsiev E.S., Iskandarov A.I., Zufarov R.A., Talimbekova V.K. Sud tibbiy fanlari: Darslik. T.: TDYuI, 2004y.
8. Iskandarov A.I., Yeshmurotov B.A., Norboev A.N. Sud meditsinasi: O'quv qo'llanma T.: TDYuI, 2006
9. Shamsiev E.S., Iskandarov A.I., Zufarov R.A., Talimbekova V.K. Sud tibbiy fanlari: Darslik. T.: TDYuI, 2008y.
10. <https://lex.uz>
11. <https://sudex.uz>
12. <https://nrm.uz>
13. <https://forensic.uz>

Avtorlar haqida:

©Dexkkonov Mashrabjon Abdubohiyevich – Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Andijon filiali (RSTEIAMAF), Andijon Davlat tibbiyot instituti. O'zbekiston, Andijon

©Fazlitdinova Roxatoy Sadriddin qizi – Andijon Davlat tibbiyot instituti, Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Andijon filiali (RSTEIAMAF), O'zbekiston, Andijon